O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

XUDAYBERGANOVA MAXBUBA MEYLIBAYEVNA

FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARIDA BOLALARGA OID REKLAMA MATNLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 811.133.1’37:008:659
811.512.133’37:008:659

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Xudayberganova Maxbuba Meylibayevna
Fransuz va o‘zbek tillarida bolalarga oid reklama matnlarining lingvomadaniy xususiyatlari …….....3

Худайберганова Махбуба Мейлибаевна
Лингвокультурологические особенности рекламных текстов для детей во французском и узбекском языках …….....26

Khudayberganova Makhbuba Meylibayevna
Linguocultural Features of Advertising Texts for Children in French and Uzbek Languages….....53

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works…….....58

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

XUDAYBERGANOVA MAXBUBA MEYLIBAYEVNA

FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARIDA BOLALARGA OID REKLAMA MATNLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Fil5821 raqam bilan ro’yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Mo‘minova Aziza Arslonovna** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Axmedov Oybek Saporbayevich** filologiya fanlari doktori, professor
	Djafarova Dildora Ilxomovna filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Jizzax davlat pedagogika universiteti.**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21a. Tel.: (99871) 230-12-91, (99871) 230-12-92; e-mail: www. uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21a. Tel.: (99871) 230-12-91, (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____”_____ kuni tarqatildi.

(2026-yil “_____” _____ dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi)

A.A. Nasirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

X.B. Samigova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

J.A.Yakubov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida reklama diskursi nafaqat tijorat maqsadlarini amalga oshiruvchi muloqot vositasi, balki muayyan jamiyatning qadriyatlari, stereotiplari va madaniy kodlarini namoyon etuvchi ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida ham keng tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, globallashuv sharoitida yosh avlodning milliy-madaniy o‘zligini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi vositalardan biri sifatida bolalarga oid reklama matnlarining lingvokulturologik xususiyatlari va ta’sir mexanizmlariga e’tibor kuchaymoqda. Shu nuqtayi nazardan, bolalarga oid reklama matnlarini turli tillar materiallari asosida chog‘ishtirish, ularda aks etgan milliy-madaniy xususiyatlarni aniqlash hamda yosh avlod ongiga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini ochib berish nazariy va amaliy jihatdan muhimdir.

Dunyo tilshunosligida reklama diskursi turli ilmiy yondashuvlar asosida va turli tizimga mansub tillar materialida o‘rganilgan tadqiqot obyektlaridan biridir. Shunga qaramay, fransuz va o‘zbek tillaridagi bolalarga oid reklama matnlarining lingvomadaniy xususiyatlari, xususan, milliy-madaniy stereotiplarning lisoniy ifodalanishi, pretsedent birliklarning funksional-semantik xususiyatlari hamda sintaktik-stilistik vositalarning madaniy jihatdan shartlanganligi yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu sababli reklama matnlarida qadriyatlarning uzatilishi, ijtimoiy rollarning ifodalanishi va madaniy o‘zlikning shakllanishiga ta’sir etuvchi til vositalarini aniqlash zamonaviy tilshunoslikning muhim masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Mamlakatimizda bolalarga oid milliy reklama diskursi nisbatan yangi yo‘nalish sifatida shakllanib borayotgan bo‘lib, unda global va rus madaniyatiga oid pretsedentlarning salmoqli o‘rin egallashi kuzatiladi. Xususan, milliy o‘zlikni ifodalovchi original reklama matnlari va obrazlar tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi ushbu sohada ilmiy va amaliy jihatdan e’tibor talab qiladigan masalalardan biridir. Zero, “Ertangi kunimiz, dunyoning taqdiri va farovonligi o‘sib kelayotgan yosh avlod qo‘lida”[1] ekan, bolalarga oid reklama diskursi o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeini mustahkamlash, milliy qadriyatlarni yosh avlodga singdirish va madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2026-yil 26-maydagi PF-98-son “Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni, 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqidan.URL: https://president.uz/oz/lists/view/8525?utm_source=chatgpt.com (Murojaat sanasi: 16.03.2026).

taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarni o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Zamonaviy tilshunoslikda reklama diskursi va uning lingvomadaniy jihatlari ijtimoiy-madaniy kommunikatsiya hodisasi sifatida keng yoritilgan bo‘lib, o‘zbek tilshunosligida reklama diskursi bo‘yicha A.A. Mo‘minova, A.E. Axtyamov, Ch.B. Abdullayeva, Z.B. Qodirova, S.A. Yunusova, Sh.M. Yunusova [2] kabi izlanuvchilarning ishlarida reklama matnlarining pragmatik, kognitiv va gender xususiyatlari o‘rganilgan. Xususan, A.A. Mo‘minova, A.E. Axtyamov va Ch.B. Abdullayevalar reklama matnlarining pragmatik xususiyatlarini o‘rganishgan, hamda, reklamaning iste’molchiga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari va muloqotdagi maqsadli yo‘naltirilganligiga e’tibor qaratganlar. Z.B. Kadirova ingliz va o‘zbek tillari reklama diskursining antropotsentrik xususiyatlarini, S.A. Yunusova fransuz va o‘zbek tillaridagi reklama matnlarining gender xususiyatlarini, Sh.M. Yunusova reklama matnlarining sintaktik xususiyatlari va ularning o‘zbek tilida pragmatik xoslanishini yoritganlar.

Reklama diskursi va reklama matnlarining lingvistik, pragmatik hamda lingvomadaniy xususiyatlari I.A. Guseynova, Y.S. Kara-Murza, V.V. Zirka, N.N. Kokhtev, Y.V. Dzyakovich, L.P. Amiri va X. Kaftandjiev kabi olimlar asarlarida keng yoritilgan bo‘lib, ularda reklama matni kommunikativ ta’sir vositasi, madaniy kodlarni uzatuvchi mexanizm va diskursiv hodisa sifatida talqin etiladi. A.M.

[2] Muminova A.A. Reklama matnida undash kategoriyasining verballashuvi (fransuz, o‘zbek va rus tillari misolida): Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: O‘zMU, 2021. – 86 b.; Axtyamov A.E. Reklama matnlarining o‘zbek, rus va nemis tillari misolidagi pragmalingvistik tahlili: Filol. fanl. bo‘yicha falsafa dokt. (PhD) diss. avtoref. – Farg‘ona: FarDU, 2022. – 60 b.; Abdullayeva Ch.B. Reklama diskursining kognitiv-pragmatik tadqiqi (ingliz va rus tillari materiallarida): Filol. fanl. bo‘yicha falsafa dokt. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – 56 b.; Kadirova Z.B. Ingliz va o‘zbek tillari reklama diskursining antropotsentrik xususiyatlari: Filol. fanl. bo‘yicha falsafa dokt. (PhD) diss. avtoref. – Buxoro, 2024. – 49 b.; Yunusova S.A. Fransuz va o‘zbek tillaridagi reklama matnlarining gender xususiyatlari. Filol. fanl. bo‘yicha falsafa dokt. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: O‘zDJTU, 2024. – 54 b.;Yunusova Sh.M. O‘zbek tilidagi reklama matnlarining sintaktik xususiyatlari va ularning pragmatik xoslanishi. Filol. fanl. bo‘yicha falsafa dokt. (PhD) diss. avtoref. – Guliston, 2023. – 48 b.

Tulikova, A.M. Kazanseva, V.A. Kameneva [3] kabi mualliflar bolalarga mo‘ljallangan reklama matnlarining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etganlar.

R.Bart, J.-M. Flosh, M.Bonom, P.Charodo [4] kabi xorijiy olimlarning izlanishlarida reklama matnining semiotik tuzilishi, pragmatik funksiyalari, madaniyat bilan o‘zaro ta’siri hamda diskursiv xususiyatlari tahlil etilgan. Ular reklama diskursini madaniyatning faol maydoni sifatida talqin qilib, uning kommunikativ ta’sir mexanizmlarini ochib berganlar.

Bolalar auditoriyasiga yo‘naltirilgan reklama tadqiqotlarida J.Piage, E.Baton-Erve, E.Gishar[5] kabi mualliflar bolaning kognitiv xususiyatlari, reklama idrokining yosh aspektlari, bolalar iste’mol madaniyatining shakllanishi masalalarini o‘rganishga e’tibor qaratganlar.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarining “Zamonaviy tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari” muammosi bo‘yicha amalga oshirilayotgan istiqbolli ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi fransuz va o‘zbek tillaridagi bolalarga oid reklama matnlarining lingvokulturologik xususiyatlarini stereotiplar va milliy ramzlarning pretsedent birliklar orqali faollashuvi asosida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

fransuz va o‘zbek tillaridagi bolalarga oid reklama matnlarida bolalik olamini ifodalovchi leksik-semantik maydonlarni aniqlash va tahlil qilish;

chog‘ishtirilayotgan tillardagi bolalarga oid reklama matnlarining sintaktik-stilistik xususiyatlarini tavsiflash;

fransuz va o‘zbek tillaridagi bolalarga oid reklamalarda milliy-madaniy stereotiplar va an’analarning lisoniy voqelanishini ochib berish;

har ikki tildagi bolalarga oid reklama matnlarida milliy ramzlarning pretsedent birliklar orqali faollashuv mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida fransuz va o‘zbek tillaridagi bolalarga oid reklama matnlari tanlangan.

---

[3] Кара-Мурза Е. С. Преподавание и изучение русской коммерческой рекламы в медиавузе // Медиалингвистика. – 2018. – Т. 5, №1. – С. 97-109.; Розенталь Д.Э., Кохтев Н.Н. Язык рекламных текстов. – М.: Высшая школа, 1981.; Kaftandjiev H. Texts of Advertising. – Sofia: University of National and World Economy, 2005.; Гусейнов Г.Ч. Реклама как феномен культуры и коммуникации. – М.: Наука, 2000.; Зирка В.В. Язык рекламы: лингвокультурный аспект. – Киев: Логос, 2008.; Дзякович Е.В. Рекламный дискурс в системе массовой коммуникации. – М.: МГУ, 2010.; Амири Л.П. Прагматика рекламного дискурса. – М.: Флинта, 2012.; Туликова А.М. Гипертекст интернет-рекламы для детей (структурные и функциональные аспекты): Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Кемерово, 2013. – 25 с.; Казанцева А.М. Особенности формы языковых единиц в рекламе для детей и подростков // Филология и культура. – 2014. – № 1 (35). – С. 41-45; Каменева В.А., Тупикова А.М. Сферы-источники метафорической экспансии в немецкоязычной рекламе для детей // Вестник КемГУ. – 2012. – Т. 3, № 4 (52). – С. 234-238.

[4] Barthes R. Mythologies. – Paris: Seuil, 1957. – 267 p.; Floch J.-M. Sémiotique, marketing et communication: Sous les signes, les stratégies. – Paris: Presses Universitaires de France (PUF), 1990. – 233 p.; Bonhomme M. La publicité comme laboratoire du français actuel // L’Information grammaticale. – 2002. – № 94. – P. 33-38; Charaudeau P. Le discours publicitaire. – Paris: Hachette, 2021. – 256 p.

[5] Piaget J. Le langage et la pensée chez l’enfant. – Neuchâtel; Paris: Delachaux & Niestlé, 1997. – 292 p.; Baton-Hervé E. Être parents d'enfants téléspectateurs // MédiaMorphoses. – 2004. – № 10. – P. 73-81; Guichard E. Le monde des marques: influenceurs influencés? // MédiaMorphoses. – 2004. – № 10. – P. 67-71.

Tadqiqot predmeti fransuz va o‘zbek tillaridagi bolalarga oid reklama matnlarining lingvokulturologik xususiyatlarini belgilovchi milliy-madaniy stereotiplar hamda milliy ramzlarning pretsedent birliklar orqali faollashuv mexanizmlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda lingvistik tavsif, chog‘ishtirma, leksik-semantik tahlil, kontekst tahlil, lingvomadaniy tahlil, diskurs tahlil, statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

reklama matnlarida bolalik olamining asosiy leksik-semantik maydonlarining tahlili asosida ularning yadro va periferiya zonalari madaniy shartlanganligi, xususan, fransuz reklamasida nuklear oila (*parents, enfant*), o‘zbek reklamasida esa kengaytirilgan oila (*buvi, buva, opa, aka*) modeli ustuvor ekanligi aniqlangan;

bolalar reklamalarida sintaktik soddalik, qisqa gaplar, imperativlik, ellipsis, partsellatsiya, parallelizm, dialogizatsiya, anafora, epifora, asindeton/polisindeton kabi universal vositalar har bir tilda o‘ziga xos ifodalanib, reduplikatsiya esa tizimli sintaktik-ritmik vosita sifatida davomiylik, ko‘plik va o‘yin-quvnoqlikni yaratishda faol ishlatilishi chog‘ishtirma usul asosida dalillangan;

fransuz bolalar reklamasida individualistik (bolaning mustaqilligi, ekologik mas’uliyat etikasi), o‘zbek bolalar reklamasida esa kollektivistik (oilaviy birlik, ona markaziyligi) yo‘nalish bilan bog‘liq milliy-madaniy stereotiplar yetakchiligi aniqlanib, milliy ramzlarning reklama diskursida pretsedent birliklar orqali marosimiy, diskursiv-formulaviy, aksiologik va kognitiv-skriptiv mexanizmlar asosida faollashuvi mahsulotga qo‘shimcha legitimlik berishi milliy-madaniy stereotip va ramzlar tahlili asosida isbotlangan;

fransuz bolalar reklamasida global, Yevropa va milliy, o‘zbek reklamasida esa global va rus madaniy pretsedent birliklar ustunligi; fransuz reklamasida me’yoriy-aksiologik formulalar (“to‘g‘ri rivojlanish” falsafasi) ustun bo‘lsa, o‘zbek reklamasida axloqiy ishonch va munosabat semantikasi kuchliroq namoyon bo‘lishi lingvomadaniy tahlil yordamida asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

fransuz va o‘zbek tillaridagi bolalarga oid reklama matnlarida bolalik olamini ifodalovchi leksik-semantik maydonlarning yadro va periferiya zonalarining madaniy shartlanganligini aks ettiruvchi ma’lumotlar bazasi tuzildi;

bolalarga oid reklama matnlarining sintaktik-stilistik xususiyatlarini lingvomadaniy aspektda kompleks tahlil qilishga yo‘naltirilgan chog‘ishtirma metodika ishlab chiqildi;

milliy-madaniy stereotiplar va pretsedent birliklarning fransuz va o‘zbek bolalar reklamasidagi funksional-semantik xususiyatlarini hisobga olgan holda, bolalar kontenti yaratish va lokalizatsiya qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi yangi muammo va vazifalarning qo‘yilishi va hal etilishi, rasmiy manbalardan olingan ma’lumotlar asosida olingan xulosalarning asoslanganligi, to‘plangan faktik materiallar tahliliga ilmiy asoslangan yondashuv, o‘tkazilgan tadqiqot natijalarining dissertatsiya ishining

nazariy asoslariga muvofiqligi, uning nazariy xulosalari va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi bilan ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fransuz va o‘zbek tillarida bolalarga oid reklama matnlarining lingvomadaniy xususiyatlari kompleks tahlil qilinganligi, bolalik olamini ifodalovchi leksik-semantik maydonlarning madaniy shartlanganlik modeli aniqlangani hamda milliy-madaniy stereotiplar va pretsedent birliklarning funksional-semantik jihatlari ochib berilganligi bilan belgilanadi.

Ishning amaliy ahamiyati esa chog‘ishtirma tilshunoslik, lingvokulturologiya, diskurs tahlili, reklama tilshunosligi va tarjimashunoslik fanlarida ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazish, maxsus kurslar tayyorlash, bolalar kontenti reklama matnlarini tarjima qilish va milliy reklama mahsulotlari yaratishda foydalanish bilan izohlanadi. Shu bilan birga, tadqiqot materiallari dissertatsiya, monografiya, darslik, o‘quv qo‘llanma va maxsus lug‘atlar yaratishda ham qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqotning nazariy takliflari, amaliy tavsiyalari va xulosalari quyidagilarga tatbiq etilgan:

reklama matnlarida bolalik olamining asosiy leksik-semantik maydonlarining tahlili asosida ularning yadro va periferiya zonalari madaniy shartlanganligi, xususan, fransuz reklamasida nuklear oila (parents, enfant), o‘zbek reklamasida esa kengaytirilgan oila (buvi, buva, opa, aka) modeli ustuvor ekanligi aniqlanganligiga oid xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2022-2024-yillarda bajarilgan IL-402104209-raqamli “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google Translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihada (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 9-fevraldagi 04/1-647-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek tili morfoleksikoni va avtomatlashtirilgan tahlil vositasi qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi leksik-semantik birliklar hamda qarindoshlik modellariga oid lug‘at qatlamlari bilan boyitilib, axborot-qidiruv va tarjima tizimlarida o‘zbek tilidagi birliklarni ijtimoiy-madaniy kontekst asosida tahlil qilish va aniqlash imkoniyatlari kengaytirilgan;

bolalarga oid reklama matnlarining sintaktik qisqalik, sodda gaplarning ustunligi, imperativlik, ellipsis, partsellatsiya, parallelizm, dialogizatsiya, anafora, epifora, asindeton/polisindeton va boshqa universal sintaktik-stilistik xususiyatlarini aniqlash orqali ularning lisoniy ifodasi har bir tilda o‘ziga xos shakllar kasb etishi, xususan, reduplikatsiya bolalar reklamasiga xos tizimli sintaktik-ritmik vosita bo‘lib, davomiylik, ko‘plik va o‘yin-quvnoqlik muhitini yaratishda faol ishtirok etishi dalillanganligi ma’lumotlaridan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida 2020-2022-yillarda davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilgan FZ-2019062034 raqamli “Xorijiy tillarda so‘zlashuvchilar uchun o‘zbek tilini intensiv o‘rgatuvchi multimedia mahsulotlarini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2026-yil 5-iyundagi 04-04-1/2920-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek tilini chet tili sifatida

o‘rganuvchilar uchun mo‘ljallangan multimedia mashg‘ulotlarining mazmuni sodda gap qurilmalari, emotsional-ekspressiv iboralar, takroriy birliklar hamda dialogik nutq modellarini o‘rgatish asosida takomillashtirilib, ularning o‘zbek tilida so‘zlashish va tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish samaradorligi oshirilgan;

fransuz bolalar reklamasida individualistik (bolaning mustaqilligi, ekologik mas’uliyat etikasi), o‘zbek bolalar reklamasida esa kollektivistik (oilaviy birlik, ona markaziyligi) yo‘nalish bilan bog‘liq milliy-madaniy stereotiplar yetakchiligi aniqlanib, milliy ramzlarning reklama diskursida pretsedent birliklar orqali marosimiy, diskursiv-formulaviy, aksiologik va kognitiv-skriptiv mexanizmlar asosida faollashuvi mahsulotga qo‘shimcha legitimlik berishi milliy-madaniy stereotip va ramzlar tahlili asosida isbotlanganligi aks etgan ma’lumotlardan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida 2023-2025-yillarda bajarilgan IL-27-4722022413-sonli “Qiyosiy adabiyotshunoslik” fanining “Komparativistika” elektron platformasini yaratish mavzusidagi innovatsion loyihasi doirasida tadqiqot natijalari amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2026-yil 3-fevraldagi 11-25/59-son ma’lumotnomasi). Natijada “Komparativistika” elektron platformasining lingvokulturologiya va madaniyatlararo muloqot bo‘limlari milliy va boshqa xalqlar madaniyatlariga xos stereotipik modellar, qadriyatlar tizimi hamda ramzlarning qo‘llanish xususiyatlarini qiyosiy yorituvchi o‘quv-uslubiy materiallar bilan boyitilib, talabalarning madaniyatlararo muloqot va diskursiv tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

fransuz bolalar reklamasida global, Yevropa va milliy, o‘zbek reklamasida esa global va rus madaniy pretsedent birliklar ustunligi; fransuz reklamasida me’yoriy-aksiologik formulalar (“to‘g‘ri rivojlanish” falsafasi) ustun bo‘lsa, o‘zbek reklamasida axloqiy ishonch va munosabat semantikasi (“ishonchli tanlov”, “pok tuyg‘u”) kuchliroq namoyon bo‘lishi lingvomadaniy tahlil yordamida asoslanganligi aks etgan ma’lumotlardan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida 2023-2025-yillarda bajarilgan IL-27-4722022413-sonli “Qiyosiy adabiyotshunoslik” fanining “Komparativistika” elektron platformasini yaratish mavzusidagi innovatsion loyihasi doirasida tadqiqot natijalari amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2026-yil 24 fevraldagi 11-25/93-son ma’lumotnomasi). Natijada elektron platformadagi komparativistika va intertekstualizm kurslari uchun modul topshiriqlari takomillashtirilib, turli madaniyatlarga xos pretsedent birliklar, qadriyatlarni ifodalovchi me’yoriy shakllar hamda mazmuniy munosabatlarning matnda namoyon bo‘lish xususiyatlarini qiyosiy o‘rganishga yo‘naltirilgan interaktiv o‘quv materiallari yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish

tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan 7 ta ilmiy maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 138 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, metodlari, tadqiqot obyekti va predmeti yoritilgan, ishning ilmiy yangiligi ochib berilgan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmiga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Birinchi bob **“Bolalarga oid reklama matnlari lingvomadaniy tadqiqining nazariy asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, unda reklama matni lingvokulturologik tahlil obyekti sifatida yoritilgan, reklama muloqotida bolalar auditoriyasining adresat sifatidagi o‘ziga xosligi tahlil qilingan, Fransiya va O‘zbekiston reklama makonida til va madaniyatning o‘zaro ta’siri ochib berilgan.

Reklama turli sohalar uchun tadqiq obyekti bo‘lib, u bir tomondan shaxslar, tovarlar, g‘oyalar haqidagi ma’lumotni o‘z ichiga olsa[6], ikkinchi tomondan noma’lum auditoriyaga yo‘naltirilgan, qiziqish va ehtiyojni boshqarishga xizmat qiluvchi maqsadli kommunikativ birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, reklama har doim tomoshabin tomonidan qabul qilinadigan qadriyat mazmunini ham o‘zida tutadi, shu bois reklama matnini tahlil qilishda uning informativligi bilangina cheklanib bo‘lmaydi, balki ijtimoiy xulq-atvorni tashish, tanlovni rag‘batlantirish va muayyan qadriyatlarni me’yor sifatida tadbiq etish singari kengroq ta’sir kuchlarini ham qayd etish lozim.

Reklama muayyan lingvomadaniy muhitda yaratilgan, verbal va noverbal komponentlar uyg‘unligiga tayangan, pragmatik ta’sirga yo‘naltirilgan kreolizatsiyalashgan matn sifatida talqin etiladi: u milliy-madaniy qadriyatlar, stereotiplar va me’yorlarni aks ettiradi hamda ularni lisoniy vositalar orqali shakllantirish va uzatishda ham ishtirok etadi. O‘zbek tilshunosligida Ch.Abdullayeva reklama matnlarining aynan milliy-madaniy stereotiplarga ta’sir ko‘rsatish xususiyatini alohida ta’kidlab, reklamani ijtimoiy tasavvurlarni qayta ishlab beradigan madaniy mexanizm sifatida baholaydi[7].

Reklama matnining lingvokulturologik tahlil obyekti sifatidagi ahamiyatini asoslashda semiotik tuzilish masalasi alohida o‘rin tutadi. R.Bart reklama matnida murakkab ma’no yaratilishini mifni ikkinchi darajali semiologik tizim sifatida talqin qilish orqali asoslab, denotativ, konnotativ va mifologik qatlamlar modelini reklama

[6] Леснева О.А. Образы пословиц и образы рекламы: о потенциале паремий в рекламном дискурсе // Учёные записки Новгородского государственного университета имени Ярослава Мудрого. – 2016. – № 1 (5). – С. 6.
[7] Abdullayeva Ch.B. Reklama diskursining kognitiv-pragmatik tadqiqi (ingliz va rus tillari materiallarida): Filol. fanl. bo‘yicha falsafa dokt. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – 56 b.

semantikasini tahlil qilishda muhim nazariy tayanch sifatida belgilaydi. Reklamadagi ta’sir ko‘pincha konnotativ va mifologik qatlamlarda amalga oshib, unda nomlash funksiyasi elementlarni aniqlashga xizmat qiladi va matn o‘quvchini ma’nolar orasida yo‘naltiradi. Demak, ta’sir “to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytilgan” mazmun bilan “madaniy jihatdan kodlangan”[8] qatlamning o‘zaro ta’siri sifatida izohlanadi. Z.Kadirova reklama diskursining antropotsentrik tabiatini ochib, reklama matnini lingvistik va ekstralingvistik omillarni birlashtiradigan pragmatik birlik sifatida talqin qiladi va undagi milliy dunyoqarashga xos assotsiativ maydonlarni o‘rganish ustuvorligini asoslaydi[9].


Reklama matnining pragmatik yo‘naltirilganligi ham lingvokulturologik tahlilda markaziy parametr bo‘lib, reklama e’tiborni jalb qilish, qiziqish uyg‘otish va harakatga undash maqsadida yaratiladi. Nutqiy aktlar nazariyasi doirasida ajratiladigan lokutiv, illokutsiv va perlokutiv darajalar reklama xabarining illokutsion kuchi hamda perlokutiv ta’sirini izohlashda nazariy tayanch vazifasini bajaradi. Reklamada ayniqsa perlokutiv natija, ya’ni iste’molchiga ta’sir o‘tkazish maqsadi yetakchidir. G.P. Grays kooperatsiya prinsipi va maksimalari reklama diskursining o‘ziga xos pragmatik mexanizmlarini yoritadi. Reklama matnlarida maksimalar ko‘pincha ongli ravishda buzilib, mubolag‘a, metafora, ortiqcha yoki yetishmaydigan ma’lumot orqali e’tiborni jalb qilish va esda qolish effekti kuchaytiriladi [10] . P.Sharodo reklama muloqotini “aytish”ning “qilish” va “qildirish”ga yo‘naltirilgan ko‘rinishi sifatida baholab [11] , ijtimoiy ta’sir mexanizmlari til vositasida ishga tushishini asoslaydi. Shu bois reklama pragmatikasi madaniy omillar bilan uzviy bog‘liq va bir madaniyatda samarali bo‘lgan strategiya boshqa madaniyatda kutilgan natija bermasligi mumkin. Ushbu yo‘nalishda A.A. Mo‘minova reklama diskursida milliy-madaniy kodlarning “sezilishi” masalasini bevosita undash kategoriyasi va adresant-adresat munosabatlari doirasida tahlil qilib, reklamadagi milliy xususiyatlarning turli jamiyatlarda turlicha qabul qilinishini isbotlaydi[12]. Shuningdek, A.E. Axtyamov reklama matnini tahlil qilishda vaziyat omillari va segmentlarning qurilishini bir butun pragmatik kompleks sifatida ko‘rish lozimligini ta’kidlaydi[13].

Reklama matnini tizimli tahlil qilishda diskurs tahlili ham asos sifatida namoyon bo‘ladi. T. van Deyk diskursning makro va mikro darajalarini ajratib, makro struktura umumiy mavzu, g‘oya va semantik yaxlitlikni, mikro struktura esa leksik birliklar, sintaktik konstruksiyalar va stilistik vositalarni qamrab olishini ta’kidlaydi [14] . Reklama matnida mikro darajadagi vositalar makro darajadagi

[8] Barthes R. Mythologies. – Paris: Seuil, 1957. – P. 181-233.
[9] Kadirova Z.B. Ingliz va o‘zbek tillari reklama diskursining antropotsentrik xususiyatlari: Filol. fanl. bo‘yicha falsafa dokt. (PhD) diss. avtoref. – Buxoro, 2024. – 49 b.
[10] Grice H.P. Logic and Conversation // Syntax and Semantics. – Vol. 3. – New York: Academic Press, 1975. – P. 41-58.
[11] Charaudeau P. Le discours publicitaire, genre discursif // Mscope. – 1994. – № 8 (La publicité: masques et miroirs). – P. 36.
[12] Muminova A.A. Reklama matnida undash kategoriyasining verballashuvi (fransuz, o‘zbek va rus tillari misolida): Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: O‘zMU, 2021. – 86 b.
[13] Axtyamov A.E. Reklama matnlarining o‘zbek, rus va nemis tillari misolidagi pragmalingvistik tahlili: Filol. fanl. bo‘yicha falsafa dokt. (PhD) diss. avtoref. – Farg‘ona: FarDU, 2022. – 60 b.
[14] Van Dijk T.A. Discourse and Context: A Sociocognitive Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – P. 167-195.

kommunikativ maqsadni amalga oshirishga xizmat qilishi. Lingvokulturologik nuqtai nazardan, makro va mikro strukturalar o‘rtasidagi vositachilik aynan madaniy omillar orqali sodir bo‘ladi, ya’ni qadriyatlar va stereotiplar strategiyani belgilab, konkret lisoniy vositalarda voqelanadi.

Reklama diskursi iqtisodiy munosabatlar mahsuli, shu bilan birga millatning mafkuraviy, madaniy va ma’naviy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan murakkab kommunikativ tizim bo‘lgani uchun bolalar auditoriyasiga murojaat qilganda bu murakkablik yanada oshadi: bolalar segmentida “qiziqtirish” mexanizmi kattalarnikidan farq qilib, ratsional argumentatsiyadan ko‘ra emotsional va o‘yinboz diskursga tayanadi. Ushbu ish doirasida bolalarga oid reklama bevosita yoki bilvosita bolalar auditoriyasiga yo‘naltirilgan, bolalar uchun mo‘ljallangan tovar va xizmatlarni targ‘ib qiluvchi yoxud bola obrazidan foydalangan holda ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan reklama matni sifatida tushuniladi (1-rasmga qarang):



1-rasm. Bolalar reklamalarini aniqlash mezonlari

Bolalar auditoriyasi “adresant–mahsulot–adresat” triadasi asosiga qurilgan reklama aloqasida markaziy o‘rin egallaydi, chunki ular o‘z xarid qobiliyatiga ega bo‘lishi bilan birga ota-onalarining xarid qarorlariga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ham ega. Shu jihatdan bola reklama xabarini qayta ishlab, o‘z “tarjimasi”da ota-onaga yetkazadi.

Bolalar auditoriyasining adresat sifatidagi o‘ziga xosligi avvalo psixologik va kognitiv tuzilish bilan bog‘liq. J.Piaje bolaning muloqot paytida o‘zining tushunilganligiga shubha qilmasligini qayd etadi[15]. Shu bilan birga, reklama yaratuvchisi til va media vositalari ustidan nazoratga ega bo‘lsa, bola ta’sirga ochiq va himoyasiz pozitsiyada turishi sababli reklama kommunikatsiyasida dialogik o‘zaro ta’sirni rivojlantirish sharti sifatida auditoriyani to‘laqonli shaxs[16] deb tan olish zarur.

[15] Piaget J. Le langage et la pensée chez l’enfant. – Neuchâtel; Paris: Delachaux & Niestlé, 1997. – P. 39.
[16] Щукина Л.С. Полифункциональность речевых сообщений в системе рекламных коммуникаций: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Воронеж, 2004. – С. 20.

Lingvokulturologik yondashuv reklama matnini tahlil qilishda semiotik, pragmatik va diskursiv yondashuvlarni birlashtiradi hamda milliy-madaniy xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi. Til birliklari semantikasi, milliy qadriyatlar va e'tiqodlar hamda idrok tuzilmalari birligi reklama matnini tahlil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa, til va madaniyatning o'zaro ta'siri reklama matnida ayniqsa yorqin ko'rinadi, chunki reklama matni hech qachon madaniy kontekstdan ajralgan holda mavjud bo'lmaydi. U muayyan lingvomadaniy muhitda yaratiladi, shu muhitning qadriyatlari, stereotiplari va kommunikativ an'analari bilan uyg'unlashadi hamda, ayni shu muhit vakillari tomonidan qabul qilinadi.

Madaniyatlararo farqlarni tizimli tahlil qilishda G.Xofstedening madaniy o'lchovlari nazariyasi asos bo'lib, hokimiyat masofasi, individualizm-kollektivizm, erkaklik-ayollik, noaniqlikdan qochish, uzoq muddatli yo'nalish, qanoatlanish-tiyilish o'lchovlari reklama diskursida bevosita aks etishi, individualistik madaniyatlarda shaxsiy yutuq va mustaqillik urg'usi kuchli bo'lishi, kollektivistik madaniyatlarda esa guruh uyg'unligi va oilaviy qadriyatlar ustuvorligi[17] inobatga olinadi. Fransiya va O'zbekiston madaniy muhitlaridagi farq reklama strategiyalarining yo'nalishini belgilashini alohida qayd etish lozim (2-rasmga qarang):



2-rasm. Bolalar oid reklamalardan na'munalar

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, reklama matni lingvokulturologik tadqiqot obyekti sifatida ko'p qatlamli belgi tizimi (denotativ, konnotativ, mifologik qatlamlar), pragmatik ta'sir yo'nalishi (illokutiv va perlokutiv), diskursiv tuzilma (makro va mikro daraja) hamda madaniy kodlar va stereotiplar bilan shartlanganligi sababli kompleks yondashuvni talab qiladi. Shuningdek, bolalar auditoriyasiga qaratilgan reklamada adresat modeli, yoshga xos kognitiv va psixologik xususiyatlar, "ikkinchi adresat" sifatidagi ota-ona faktori va kommunikativ mas'uliyat masalasi tahlilning ajralmas komponentlari sifatida namoyon bo'lib, fransuz va o'zbek reklama makonlari qiyosida til siyosati, milliy madaniy kodlar,

[17] Hofstede G. Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations. – Thousand Oaks, CA: SAGE Publications, 2001. – 616 p.

ehtiyoj va qadriyatlarning turlicha kodlanishi reklama strategiyalarida farqli yo‘nalishlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Ikkinchi bob **“Fransuz va o‘zbek tillarida bolalarga oid reklama matnlarining lingvistik tavsifi”** deb nomlangan bo‘lib, unda chog‘ishtirilayotgan tillardagi reklamalarda bolalik olamining leksik-semantik ifodasi tahlil qilingan hamda bolalarga oid reklama matnlarining sintaktik-stilistik xususiyatlari aniqlangan.

Tadqiqotda 2020-2025-yillar Fransiya va O‘zbekiston media makonidagi 400 ta fransuzcha va 400 ta o‘zbekcha, jami 800 ta bolalarga oid reklama matni tahlil qilindi (1-jadvalga qarang). Materiallar raqamli videolar, elektron tijorat saytlari, ijtimoiy tarmoqlar hamda bosma manbalarini qamrab oladi.

1-jadval.

Fransuz va o‘zbek bolalarga oid reklamalarning manba bo‘yicha tavsifi

Manba turi	Fransuzcha reklamalar (soni)	Fransuzcha reklamalar (ulushi, %)	O‘zbekcha reklamalar (soni)	O‘zbekcha reklamalar (ulushi, %)	Jami	Jami (ulushi, %)
YouTube platformasi	108 ta	27%	265 ta	66,25%	373 ta	46,63%
Elektron tijorat saytlari	183 ta	45,75%	0 ta	0%	183 ta	22,88%
Bosma manbalar	85 ta	21,25%	85 ta	21,25%	170 ta	21,25%
Instagram ijtimoiy tarmog‘i	9 ta	2,25%	30 ta	7,5%	39 ta	4,88%
Raqamli xotira manbalari	12 ta	3%	16 ta	4%	28 ta	3,5%
Boshqa media tarmoqlari	3 ta	0,75%	4 ta	1%	7 ta	0,88%
JAMI	**400 ta**	**100%**	**400 ta**	**100%**	**800 ta**	**100%**

V.G. Gak, Y.D. Apresyan, A.Veybitskaya[18] kabi olimlarning semantik maydon nazariyasiga tayangan holda o‘tkazilgan tahlil natijasida bolalarga oid reklama diskursida bolalik olami yetti asosiy leksik-semantik maydonda voqelanishi aniqlandi: oila va qarindoshlik munosabatlari, o‘yin va qiziqarlilik, salomatlik va himoya, rivojlanish va ta’lim, emotsional holat, jismoniy xususiyatlar hamda predmetlar olami.

[18] Гак В.Г. Языковые преобразования: Виды языковых преобразований, факторы и сферы реализации языковых преобразований. – М.: УРСС, 2010. – 407 с.; Апресян Ю.Д. Избранные труды: В 2 т. Т. 1: Лексическая семантика. – М.: Языки русской культуры, 1995. – 472 с.; Wierzbicka A. Semantics: Primes and Universals. – Oxford; New York: Oxford University Press, 1996. – 500 p.

Oila va qarindoshlik munosabatlari maydoni bolalarga oid reklama diskursida markaziy o‘rinni egallab, bunda bola obrazi deyarli har doim oilaviy kontekstda taqdim etiladi. Fransuz tilidagi materialda ushbu maydonning yadrosini “famille”, “parents”, “enfant”, “bébé”, “maman”, “papa” leksemalari tashkil etadi. “Vertbaudet” brendining “vous allez adorer être parents” shiorida “parents” leksemasi “être” bog‘lovchisi bilan qo‘shilib, ota-onalikni ontologik holat sifatida taqdim etadi, “adorer” so‘zining tanlanganligi esa ota-onalikni mas’uliyatga ko‘ra zavq manbai sifatida ifodalaydi.

O‘zbek tilidagi reklama matnlarida oila va qarindoshlik munosabatlari maydoni o‘ziga xos leksik birliklar orqali verballashadi. Yadroviy leksemalar qatoriga “oila”, “ota-ona”, “farzand”, “bola”, “go‘dak”, “chaqaloq” kiradi, biroq o‘zbek tiliga xos kengaytirilgan oila tizimini aks ettiruvchi “buvi”, “buva”, “opa”, “aka” kabi leksemalar ham faol qo‘llaniladi. “Kango” saqich reklamasidagi dialog matnida “qizim” murojaat shakli ota va qiz o‘rtasidagi emotsional yaqinlikni, “Biz sizni kutamiz” jumlasidagi “biz” olmoshi esa oilaning kollektiv sub’ekt sifatida taqdim etilishini ifodalaydi.

O‘yin va qiziqarlilik semantik maydoni bolalarga yo‘naltirilgan reklama diskursining eng keng qamrovli va leksik jihatdan eng boy qatlamlaridan birini tashkil etadi. Fransuz tilidagi materialda ushbu maydonning yadroviy leksemalariga “jeu”, “jouet”, “jouer” kiradi, ularning derivatsion imkoniyatlari keng: “joueur”, “jouable”, “enjoué”. Periferik zonada “amusement”, “divertissement”, “aventure”, “imagination”, “rêve”, “magie” kabi leksemalar joylashgan. “JouéClub” o‘yinchoqlar do‘koni katalog reklamalarida bir necha semantik qatlam kuzatiladi: “JouéClub” brend nomi o‘zida “joué” va “club” leksemalarini birlashtiradi, “Noël” leksemasi bayram semantikasini kiritib, o‘yinchoqlarni sovg‘a madaniyati kontekstiga joylashtiradi.

O‘zbek tilidagi reklama matnlarida o‘yin va qiziqarlilik maydonining yadroviy leksemalari qatoriga “o‘yin”, “o‘yinchoq”, “o‘ynamoq” kabilar kiradi “NMedov” brendining “Quvnoq ta’m Sladokda mujassam!” shiorida “quvnoq” sifati odatda jonli mavjudotlarni tavsiflash uchun qo‘llanilib, “ta’m” abstraktiv otiga tatbiq etilgan – bunday semantik ko‘chish personifikatsiya asosida amalga oshirilgan. Chog‘ishtirma tahlildan anglashiladiki, fransuz tilidagi materialda ko‘plab neologizmlar, o‘zlashgan so‘zlar, metaforik iboralar qo‘llanilsa, o‘zbek tilidagi materialda leksik tanlov nisbatan konservativ; fransuz matnlarida o‘yin individualizatsiyalashgan tajriba sifatida, o‘zbek matnlarida esa ko‘proq oilaviy, jamoaviy faoliyat sifatida taqdim etiladi.

Salomatlik va himoya semantik maydonida bola obrazi ko‘pincha himoyaga muhtoj, mo‘rt mavjudot sifatida tasvirlanadi. Fransuz tilidagi materialda ushbu maydonning yadroviy leksemalariga “protection”, “protéger”, “sécurité”, “sûr”, “santé”, “sain” kiradi. MAE sug‘urta kompaniyasining “La MAE protège les enfants” shiori sodda, biroq semantik jihatdan salmoqli sub’ekt-predikat-obyekt konstruksiyasini yasaydi. O‘zbek tilidagi materialda salomatlik va himoya maydoni “sog‘lom”, “sog‘lik”, “foydali”, “tabiiy”, “sof”, “xavfsiz”, “himoya” kabi leksemalar orqali verballashadi. Mazkur maydonning o‘zbek kontekstida o‘ziga xos xususiyati – tabiiylik va soflik semantikasining kuchliligidir. Bolalar gigiyenasi

mahsulotlari reklamalarida yumshoqlik va qulaylik semantikasi dominantlik qiladi: “Perla” bezi reklamasidagi “yangi avlod bolalar uchun yumshoq va qulay” matnida “yangi avlod” iborasi innovatsion xarakterga ishora qiladi.

Rivojlanish va ta’lim semantik maydonida zamonaviy jamiyatda bolaning intellektual, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishi ota-onalarning ustuvor vazifasi sifatida ifodalanadi. Fransuz tilidagi materialda FQDE tashkilotining “Élever l’école” shiori semantik jihatdan qiziqarli: “Élever” fe’li orqali maktab ta’lim sifatini yaxshilash va bolalarni tarbiyalash g‘oyalarini bir so‘zda birlashtiradi. O‘zbek tilida rivojlanish va ta’lim maydoni “o‘rganish”, “bilim”, “tarbiya”, “aql”, “rivojlanish” kabi leksemalar orqali voqelanadi. MY5 TV kanalining “Tili Biyron – sun’iy intellekt bilan suhbat” dasturi zamonaviy texnologiyalarni bolalar ta’limi kontekstiga hamohanglashtiradi. “Bolalar uchun ovozli, elektron joynamoz” reklamasida diniy ta’lim va zamonaviy texnologiya sintezi kuzatiladi.

Emotsional holat maydoni bolalarga oid reklama diskursida alohida ajratiladi, chunki bola obrazi ko‘pincha quvonch, baxt va ijobiy his-tuyg‘ular bilan bog‘lanadi. Fransuz tilidagi materialda bu maydon “joie”, “bonheur”, “plaisir”, “rêve”, “magie”, “amour”, “tendresse” kabi leksemalar orqali beriladi. “Kinder” brendining Pasxa mavzusidagi reklamasi bayram quvonchi semantikasini shirinlik iste’moli bilan bog‘laydi. O‘zbek tilidagi materialda emotsional holat maydoni “xursand”, “baxtli”, “quvnoq”, “shod”, “quvonch”, “mehr”, “sevgi” kabi leksemalar orqali ifodalanadi: “Shodlik xalqlar orasida. Bu yerda sevgi va quvonch abadiy” – “shodlik”, “sevgi”, “quvonch” leksemalarining zanjirli qo‘llanilishi hissiy faollikni maksimal darajaga ko‘taradi.

Jismoniy xususiyatlar maydoni bolalarga oid reklama diskursida mahsulot sifatlarini ifodalash uchun faol qo‘llaniladi. Fransuz tilidagi materialda “doux/douce”, “tendre”, “léger”, “petit”, “grand” kabi sifatlar ko‘p ishlatiladi: “Petit” + “Bateau” = “Kichik kema” – bu metafora bolani mo‘rt, himoyaga muhtoj, biroq sayohatga tayyor mavjudot sifatida tasvirlaydi. O‘zbek tilidagi materialda “yumshoq”, “qulay”, “katta”, “kichik”, “yangi” kabi sifatlar faol qo‘llaniladi.

Predmetlar olami maydoni o‘yinchoqlar, kiyimlar, oziq-ovqat mahsulotlari, gigiyena vositalari nomlanishlarini o‘z ichiga oladi. Fransuz va o‘zbek bolalarga oid reklama diskursida bu maydon umumiy jihatdan o‘xshash makrokategoriyalarni qamrab olsa-da, nominatsiya va semantik urg‘ular turlicha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Fransuz materialida o‘yinchoqlar nomlanishi ertaksimon-tarixiy assotsiatsiyalar orqali bolalik tajribasini “tasavvur makoni” sifatida badiiy modellashtirsa, o‘zbek materialida predmetlar olami ko‘proq pragmatik ehtiyojlar doirasida tartiblanib, oziq-ovqat va gigiyena segmentlarida foydalilik, tozalik, xavfsizlik konseptlari mazmuniy yadro vazifasini bajaradi.

Bolalarga oid reklama matnlarining sintaktik-stilistik tuzilmasi bolaning idroki, emotsional reaksiyasi va muloqotdagi ishtirokini faollashtirishga xizmat qiluvchi vositalar majmuasidan iboratdir. Ifoda qisqaligi bolalarga oid reklama matnlarining xarakterli strukturaviy-sintaktik xususiyatlaridan biri hisoblanadi – bola idrokining xususiyatlarini hisobga olgan holda, reklama matni murakkab sintaktik konstruktsiyalardan qochib, asosan bir yoki ikki komponentli tuzilmalardan foydalanadi. Fransuz tilida mazkur qonuniyat qisqa nominal guruhlar, infinitiv

konstruktsiyalar va elliptik tuzilmalar orqali amalga oshiriladi: “Haribo, c’est beau la vie, pour les grands et les petits!”. O‘zbek tilida esa ega-to‘ldiruvchi-kesim tartibiga asoslangan ixcham gaplar, ko‘pincha fe’lsiz nominal sloganlar va partsellatsiyalangan strukturalar orqali namoyon bo‘ladi: “Mumkins – bolangiz uchun eng yaxshisi. Yumshoq. Qulay. Ishonchli”.

Sodda gaplarning murakkab qo‘shma gaplarga nisbatan ustunligi ham bolalarga oid reklamaning o‘ziga xos tipologik belgisi sanaladi. Ellipsis bolalarga oid reklama matnlarida bir necha funksiyani bajaradi: xabarni qisqartiradi, sirli effekt yaratadi va reklama matnini vizual tasvir bilan bog‘laydi. Nominativ sloganlar bolalarga oid reklamaning eng xarakterli sintaktik turlari orasida alohida o‘rin tutadi – bunday konstruktsiyalarda tovarning nomi va uning biror xususiyati otli birikmalar shaklida beriladi: “MERRYPO tagligi – Onaning mehribon tanlovi”.

Partsellatsiya bolalarga oid reklama matnlarida ekspressiya va ritm yaratish uchun faol ishlatiladi: “Couches nouveau-né. Ultra doux. Canaux d’absorption. Barrières anti-fuites”. O‘zbek tilida ham o‘xshash strategiya kuzatiladi: “Yumshoq va elastik. 12 soatgacha quruq holda qoladi”.

Imperativlik bolalarga oid reklama matnlarining eng ko‘zga tashlanadigan sintaktik xususiyatlaridan biri bo‘lib, u adresatni muayyan harakatga undash funktsiyasini bajaradi. Fransuz tilida ikkinchi shaxs imperativi chaqiruv yadrosi vazifasini bajaradi: *Découvre, Viens, Essaie, Joue* kabi shakllar reklama xabarining markaziy elementi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida “ol, o‘yna, sinab ko‘r” shakllari bolaga bevosita murojaat qilishda, muloyim formulalar “keling, marhamat, tanlang” ota-onalarga yoki rasmiyroq kontekstlarda ishlatiladi. O‘zbek bolalar reklamasida qattiq buyruq kamdan-kam uchraydi, uning o‘rniga yumshoq taklif, do‘stona da’vat qo‘llaniladi va bu o‘zbek madaniyatiga xos ijtimoiy munosabatlar, bolaga nisbatan ham hurmat va e’tibor ko‘rsatish an’anasini aks ettiradi.

So‘roq konstruktsiyalari bolalarga oid reklama matnlarida adresatni dialogga jalb qilish va uning faol ishtirokini ta’minlash vazifasini o‘taydi. Ko‘pchilik hollarda bunday so‘roqlar ritorik xarakterga ega: “Tu es prêt pour un gros plan?” Fransuz tilida dialoglilik ko‘pincha qisqa, dinamik savollar orqali yaratiladi, o‘zbek bolalar reklamasida ham dialoglilik muhim o‘rin tutadi, u ko‘pincha oilaviy muloqot kontekstida namoyon bo‘ladi.

Sintaktik parallelizm, ya’ni bir xil sintaktik modellarning takrorlanishi, ritm va esda qolish effekti yaratish uchun ishlatiladi: “Haribo, c’est beau la vie, pour les grands et les petits!”. O‘zbek tilida parallelizm ham morfologik, ham sintaktik darajada namoyon bo‘ladi: “Ovqatlanish payti ham, o‘yin vaqtida ham, sayrda ham”. Takrorlar, xususan anafora va epifora, semantik kuchaytirishning vositasi sifatida bolalar nutqining tabiiy xususiyati bo‘lib, eslab qolishni osonlashtiradi, emotsional ta’sirni kuchaytiradi va ritmik yaxlitlik yaratadi. Reduplikatsiya bolalarga oid reklamada leksika va sintaksis chegarasida joylashgan hodisa bo‘lib, takrorlar, juftliklar va parallel konstruktsiyalar orqali bolalarcha esda qolarlilik effekti yaratiladi: “Miam Miam”, “Yum-yum… yana bitta!” O‘zbek tilida reduplikatsiya alohida sintaktik-ritmik vosita sifatida davomiylik, ko‘plik ma’nolarini ifodalab keladi: “yumshoq, yumshoq qoplama”, “juda-juda qulay”.

Dialogizatsiya savol-javob, replika almashish, suhbat imitatsiyasi orqali hosil bo‘lib, adresatni passiv qabul qiluvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Ko‘chirma gap orqali reklama xabari uchinchi shaxs hikoyasidan birinchi shaxs tajribasiga o‘tadi, autentiklik va ishonchlilik effektini yaratadi. *Tu* va *vous* murojaat shakllarining sintaktik-pragmatik jihati fransuz bolalar reklamasida katta o‘rin tutadi: *tu* shakli bolaga bevosita murojaat qilishda ishlatiladi va yaqinlik, do‘stlik munosabatlarini ifodalaydi, *vous* shakli esa ota-onalarga murojaat qilishda qo‘llaniladi. O‘zbek tilida *sen* va *siz* murojaat shakllari o‘xshash sintaktik-pragmatik tanlovni ifodalasa-da, samimiylik va yaqinlik boshqa vositalar – murojaat shakllari, erkalash birliklari orqali yaratiladi: “Bolaginam, sen uchun eng yumshoq taglik!”.

Ikki manzilli adresatsiya bolalar reklamasining o‘ziga xos pragmatik xususiyati bo‘lib, matn bir vaqtning o‘zida bolaga (emotsiya, o‘yin) va ota-onaga (foyda, sifat) yo‘naltiriladi. Fransuz bolalar reklamasida mazkur xususiyat registr almashishi orqali ifodalanadi: bolaga *tu* bilan murojaat qilinganda o‘yinchanlik, ota-onaga *vous* bilan murojaat qilinganda jiddiylik uslubi qo‘llaniladi. O‘zbek bolalar reklamasida ikki manzilli adresatsiya boshqacha vositalar orqali amalga oshiriladi: bolaga murojaat qilganda erkalash shakllari va o‘yinchan sintaktik konstruktsiyalar, ota-onaga murojaat qilganda sifat, foyda, xavfsizlik haqidagi ma’lumotlar beriladi.

Infinitiv reklama konstruktsiyalari fransuz tilida o‘ziga xos va juda faol sintaktik model hisoblanadi: *À + infinitiv* konstruktsiyasi elliptik yo‘riqnoma sifatida (“À partager en famille”), *Pour + infinitiv* maqsadni ifodalaydi (“Pour bien grandir”). O‘zbek bolalar reklamasi materialida infinitiv konstruktsiyalar uchramaydi – bu fransuz tilining flektiv-analitik va o‘zbek tilining agglyutinativ tabiatidagi farqlardan kelib chiqadi.


Xulosa qilib aytganda, fransuz va o‘zbek bolalarga oid reklama matnlarida sintaktik qisqalik, oddiy gaplar, parataktik bog‘lanish, imperativlik, so‘roq va undov konstruktsiyalar, ellipsis, nominativlik, partsellatsiya, parallelizm, takrorlar, sanab o‘tish, murojaat va dialogizatsiya kabi universal xususiyatlar namoyon bo‘ladi. Fransuz reklamalarida stilistik tonallik bolalik tu-adresatsiya, so‘zlashuv sintaksisi va slogan lakonizmi orqali qurilsa, o‘zbek reklamalarida sintaktik ekspressiya – reduplikatsiya, partsellatsiya, iliq murojaat va oilaviy modallik bilan kuchaytiriladi, g‘amxo‘rlik uslubi tizimli ifodalanadi

Uchinchi bob **“Fransuz va o‘zbek tillarida bolalarga oid reklama matnlarining lingvokulturologik tahlili”** deb nomlangan bo‘lib, unda bolalarga oid reklamalarda milliy-madaniy stereotiplar va an’analarning lisoniy voqelanishi o‘rganilib, milliy ramzlarning pretsedent birliklar orqali faollashuv mexanizmlari ochib berilgan.

Bolalarga oid reklama matni hech qachon madaniy bo‘shliqda yaratilmaydi, u muayyan jamiyatning qadriyatlar tizimiga, ijtimoiy me’yorlariga va kollektiv tasavvurlariga tayanadi. Bolalarga mo‘ljallangan reklama bu qonuniyatni yanada yaqqolroq namoyon etadi, chunki u “to‘g‘ri bolalik”, “namunali oila”, “yaxshi ota-ona” haqidagi madaniy kodlarni uzatish orqali mahsulotni sotishni samaraliroq qiladi. Milliy-madaniy stereotip muayyan lingvomadaniy jamoa a’zolari tomonidan “normal”, “tabiiy”, “kutilgan” deb qabul qilinadigan xulq-atvor, qadriyat va

munosabatlar modeli sifatida tushuniladi. Reklama diskursida stereotip ikki vazifani bajaradi: kognitiv yukni kamaytiradi, adresatga tanish ssenariylar orqali xabarni tezroq qabul qilish imkonini beradi hamda emotsional rezonans yaratish orqali “o‘zimizniki” hissini uyg‘otib, mahsulotga ishonch hosil qiladi.

Fransuz bolalar reklamasida “rentrée” (maktabga qaytish, o‘quv yili boshlanishi) ssenariysi markaziy o‘rin egallaydi. Fransiyada o‘quv yilining boshlanishi butun bir madaniy hodisa hisoblanib, bu davr bolalar uchun maktab anjomlari, kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlari reklamasining eng faol mavsumiga aylanadi. “Carrefour” supermarketlar tarmog‘ining “La rentrée à petits prix”[19] kampaniyasida fransuz lingvomadaniyatiga xos kulturema maqomiga ega “rentrée” leksemasi “qaytish” ijtimoiy-madaniy hodisasi doirasida yangi bosqichni anglatadi. Kampaniyadagi “Choisis ton style pour la rentrée” formulasi alohida tahlilga loyiq: imperativ “choisis” bolaga bevosita yo‘naltirilgan bo‘lib, uni mustaqil qaror qabul qiluvchi subyekt sifatida tan oladi, “ton style” egalik olmoshi bola individualligini ta’kidlaydi. Shu tariqa, maktabga tayyorgarlik jarayoni individuallik stereotipi doirasida verballashadi.



3-rasm. Bolalarga oid reklama diskursida stereotiplarning reallashuvi iyerarxiyasi

Fransuz bolalar reklamasida ikkinchi yirik madaniy ssenariy bayram kalendari bilan bog‘liq (3-rasmga qarang). Rojdestvo, Pasxa, tug‘ilgan kun kabi bayramlar bolalar mahsulotlari reklamasining asosiy ramkalarini tashkil etadi. LEGO kompaniyasining 2024-yilgi Rojdestvo kampaniyasi “Cataclaws” personaji atrofida

[19] URL: https://www.carrefour.fr/rentree-scolaire (Murojaat sanasi: 27.09.2026).

qurilgan bo‘lib, “magie”, “fête”, “cadeau”, “surprise” leksik birliklari ko‘p takrorlanadi. Rojdestvo Fransiyada sekulyar bayram sifatida taqdim etiladi, diniy ramzlar deyarli uchramaydi, urg‘u oilaviy birlik va bolalarning xayolot kuchiga qo‘yiladi. Kampaniya shiori “La magie, c’est de l’imaginer ensemble” “imaginer” orqali individual ijodiyat, “ensemble” orqali esa oilaviy hamkorlik qadriyatlarini birlashtiradi.

Fransuz bolalar reklamasida bolaning avtonom subyekt sifatida pozitsiyalanishi TARBIYA maydonida “mustaqillikka o‘rgatish” meyorini, IJTIMOIY MUHIT maydonida esa bolaning jamiyatdagi o‘rni legitimizatsiyasini ifodalaydi. LEGO brendining “Libérez le super-pouvoir de jouer!” kampaniyasi bu stereotipni yorqin aks ettiradi: “super-pouvoir” metaforasi bolaning ichki potentsialini ta’kidlab, o‘yinni g‘ayrioddiy qobiliyat sifatida voqelantiradi, “libérez” imperativ fe’li esa erkinlik semantikasini kuchaytiradi. Implitsit mantiq: bolaning ichida super kuch bor, lekin u “qamoqda”, LEGO esa uni “ozod qilish” vositasi.

Ekologik mas’uliyat etikasi bilan bog‘liq stereotipik model zamonaviy fransuz bolalar reklamasida kuchayib bormoqda. “Little Big Change” brendining taglik reklamasi “Rien d’autre dans leurs couches que leur propre merde” shiori ataylab provokatsion tarzda tuzilgan: vulgar “merde” so‘zining ishlatilishi e’tiborni jalb qiladi, “rien d’autre” mutlaq inkor tabiiy tarkibni tasvirlaydi. Reklama ikki adresat guruhiga murojaat qiladi: emotsional va ratsional – natijada “ongli iste’molchi” stereotipining verballashuviga guvoh bo‘lamiz. Model IJTIMOIY MUHIT maydonida iste’molning “nazoratli amaliyot” sifatida meyorlashuvini, TARBIYA maydonida esa ota-onaning “to‘g‘ri tanlov” kompetensiyasini tarbiyaviy vazifa sifatida voqelantiradi.

O‘zbek bolalar reklamasining eng asosiy o‘ziga xosligi shundaki, unda bola kamdan-kam hollarda avtonom subyekt sifatida ko‘rilib, bola deyarli doimo oila, jamoa yoki kattalar nazorati kontekstida gavdalantiriladi. Fransuz reklamasidagi bolaga bevosita yo‘naltirilgan imperativlar o‘zbek reklamasida istisno hisoblanadi, buning o‘rniga ota-onaga murojaat qiluvchi formulalar ustunlik qiladi. “Nestlé NAN” aralashmalari O‘zbekiston bozorida “Farzandingiz sog‘lom o‘sishi uchun” turidagi matnlarda “farzandingiz” egalik konstruksiyasi bolani ota-onaning mas’uliyat obyekti sifatida ifodalaydi.

O‘zbek reklamasida kengaytirilgan oila stereotipi alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbek lingvomadaniyatida “oila” konsepti yadro ma’nosidan tashqari qarindosh-urug‘, mahalla, jamoa kabi periferiya komponentlarini ham o‘z ichiga olgan bo‘lib, reklama matnlarida bu “biz” olmoshining keng qo‘llanilishida namoyon bo‘ladi: mahsulotlar “bolangiz uchun” emas, balki “bolalarimiz uchun” shakllari keng tarqalgan. “Crafers”ning rasmiy kanalidagi “Bolajonlarimiz uchun ajoyib lavha bo‘libdi! Har hafta bolalarimiz uchun qiziqarli roliklar…” formulasi aynan umumiy “biz” birlik hissini yaratib, mahsulotni shaxsiy iste’mol predmetidan jamoa qadriyatiga aylantiradi.

Bayram kalendari o‘zbek bolalar reklamasida yetakchi madaniy ssenariylardan biri sifatida voqelanadi. Fransuz reklamasida sekulyarlashtirilgan Rojdestvo va Pasxa “mavsumiy brending”ning markazida turgan bir paytda, o‘zbek reklama makonida Navro‘z hamda Hayit kabi bayramlar madaniy ramkalarning asosini

belgilaydi. Navro‘zning “bahor – yangilanish” semantikasi bolalar segmentida ham bevosita kuzatiladi: bolalar kiyimlari va mavsumiy takliflar kontekstida “Navro‘z/yangilanish mavsumi” kabi formulalar ishlatilib, mahsulot “yangi bosqich” g‘oyasiga ulanadi. Hayit doirasida esa bolalarga qaratilgan promokommunikatsiya ko‘pincha “bayram – bolalar quvonchi” ssenariysi bilan qurilib, sovg‘a ulashish amaliyoti ijtimoiy meyorga xos “savob/mehr” mazmuni bilan birikadi.

O‘zbek bolalar reklamasining yana bir xususiyati ona obrazining dominant pozitsiyasidir. Kommunikativ rollar taqsimotida bola ko‘proq “iste’molchi-qabul qiluvchi” sifatida ramkalansa, qaror va nazorat vazifasi kattalar, ayniqsa onaga yuklanadi. “Bir qoshiq onajonimizdan, bir qoshiq dadajonimizdan” kabi formula bolani “ovqatlantiriladigan” obyekt sifatida tasvirlaydi, kattalarni bevosita g‘amxo‘rlik qiluvchiga aylantiradi. Iboradagi diminutiv-affektiv “onajon” komponenti reklama semantikasini keskin emotsionallashtirib, mahsulotni mehr bilan beriladigan “ota-ona parvarishi”ning davomi sifatida voqelashtiradi.

Gender stereotiplari o‘zbek bolalar reklamasida fransuz reklamasiga nisbatan an’anaviy ko‘rinishda saqlanib qolgan. Fransuz reklamasida kuzatilgan neytrallik o‘zbek bozorida deyarli uchramaydi, aksincha, “o‘g‘il bolalar uchun”, “qizlar uchun” kabi ochiq va izchil qo‘llaniladi. Lingvistik jihatdan bu “o‘g‘il bola” va “qiz bola” nominatsiyalarining grammatik va semantik farqlanishida namoyon bo‘ladi: o‘zbek tilida “o‘g‘il” leksemasi “davomchi”, “merosxo‘r” semantikasida gavdalanib, o‘g‘il bolalarga sport, texnika, qizlarga esa go‘zallik, uy-ro‘zg‘or obrazlar atribusiyasi orqali namoyon bo‘ladi.

Bolalarga oid reklama diskursida milliy-madaniy mazmun, avvalo, milliy ramzlar orqali shakllanadi. Ushbu ramzlar ayrim hollarda pretsedent birliklar vositasida faollashib, adresatning madaniy xotirasiga murojaat qilish orqali reklama mazmunining tanish va ishonchli qabul qilinishini ta’minlaydi. Bolalarga mo‘ljallangan reklama matnlarida pretsedentlikning o‘rni salmoqli bo‘lib, yosh avlod ongida milliy va madaniy o‘zlikni shakllantirish vositasi ham sanaladi. Pretsedent matnlar “ma’lum shaxs uchun bilish va emotsional jihatdan ahamiyatli, oshkor-ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan, oldingi va zamonaviy diskursda qayta-qayta murojaat qilinadigan birliklar”dir[20].

Pretsedent birliklarning bolalar reklamasida emotiv funksiyasi nuqtai-nazaridan, fransuz bolalar reklamasida emotiv ta’sir kuchi yuqori. “Kinder Surprise”ning “C’est si bon de les voir Happy” kampaniyasida oilaviy baxt emotsiyasi alohida o‘rin egallab, ota-bola munosabatlarining turli lahzalari ketma-ket tasvirlanadi, Farel Uilyamsning “Happy” qo‘shig‘i emotiv fonni kuchaytiradi. Vizual, auditiv va emotiv kanallar birlashib, integral ta’sir hosil qiladi. O‘zbek bolalar reklamasida emotiv funksiya asosan oilaviy qadriyatlar orqali amalga oshiriladi, oila instituti o‘zbek madaniyatida markaziy o‘rin tutganligi sababli bolalar mahsulotlari reklamasida oila obrazi dominant pozitsiyani egallaydi.

Fransuz bolalar reklamasida pretsedent birliklar global, yevropa va milliy qatlamlardan iborat tizimni tashkil etadi. Global qatlam – Disney, Marvel, Pokémon,

[20] Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – Москва: Наука, 2010. – С. 216.

Star Wars kabi transmedia franshiza obrazlari; yevropa qatlami – LEGO, Playmobil, Kinder kabi kontinental brendlar; milliy qatlam – fransuz adabiyoti, tarixi, madaniyati obrazlari. “Petit Bateau” brendining 1996-yilgi reklama kampaniyasida Jacques Dutroncning “Fais pas ci, fais pas ça” qo‘shig‘i fon musiqasi sifatida qo‘llanib, fransuz pop-madaniyatining pretsedent matni bolalar erkinligi kontekstida qayta ishlanadi. Asl qo‘shiqda ota-onalar taqiqlari ironik tarzda aks ettirilgan bo‘lsa, reklamada bu taqiqlar ijobiy kontekstda – bolalar faolligining quvonchli ifodasi sifatida taqdim etilgan, ya’ni pretsedent matnning semantik inversiyasi hodisasi kuzatilgan.

O‘zbek bolalar reklamasida milliy pretsedent birliklar ismlar tizimi, an’anaviy folklor va adabiyot obrazlariga tayanadi: Nasriddin Afandi donolik va hazilkashlik ramzi, Alisher Navoiy ta’lim va bilim, Alpomish va Go‘ro‘g‘li jasorat va vatanparvarlik qadriyatlari bilan bog‘lanadi. Biroq bu obrazlardan bolalar reklamasida kamdan-kam foydalanilganligi aniqlandi. “AQLVOY” bolalar telekanalining tashkil etilishi o‘zbek bolalar kontentida milliy pretsedentlarni shakllantirish yo‘lida diqqatga sazovor qadam bo‘ldi, ammo kanal efirida global pretsedentlarning ustunligi saqlanib qolmoqda.

Pretsedent birliklarning verballashuv usulida madaniyatlararo farq mavjud: fransuz reklamasida paremiya uslubiga yaqin me’yoriy umumlashtirish ustun. “Blédina” kampaniyasidagi “On mange mieux quand on est curieux” gap tuzilishi jihatdan “qachonki X bo‘lsa, Y sodir bo‘ladi” tipidagi umumiy qoidani eslatadi va reklama shiorini “o‘git” janri bilan yaqinlashtiradi. O‘zbek reklamasida esa hayotiy vaziyatga yondosh, og‘zaki nutqqa yaqin iboralar orqali ishonch hosil qilinadi: “Pruddy” taglik reklamaviy postida “Puldan quruq qolgan bo‘lsa ham, Pruddy’i bor!” formulasi iste’molchi tajribasidagi “qisqa mablag‘ – baribir yechim topish” ssenariysi pretsedent vaziyatga aylantirilgan. Fransuz shiorida me’yoriylik ustun bo‘lsa, o‘zbek misolida ijtimoiy-psixologik realizm ustun turadi.

Milliy ramzlar bolalar reklamasida ko‘proq lokallashuv markerlari orqali ifodalanadi. Fransuz materialida “bio”, “récoltes”, “papas et les mamans” birliklari fransuz ijtimoiy-madaniy muhitiga xos muomala va me’yorlarni ifodalaydi. O‘zbek materialida “muborak bo‘lsin”, “chaqalog‘ingiz”, “beg‘ubor tuyg‘u” kabi birliklar milliy muhitni tasvirlaydi. Bolalar reklamasi ko‘pincha umuminsoniy g‘oyalarni takrorlasa-da, biroq aynan milliy muhitga xos til tanlovi va madaniy ssenariylar orqali mazkur g‘oyalar mahalliylashtirilib, reklama xabarining ishonchliligi va qabul qilinish darajasi oshiriladi.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, bolalarga oid reklama matnlarida milliy ramzlarning pretsedent birliklar orqali faollashuvi bir nechta o‘zaro bog‘liq lingvokulturologik mexanizmlar asosida amalga oshadi. Marosimiy-pretsedent mexanizm tabrik formulalari va bayram bilan bog‘liq pretsedent birliklar orqali kollektiv madaniy xotirani faollashtiradi. Diskursiv-formulaviy mexanizm barqaror murojaat shakllari orqali milliy me’yor va munosabat modellarini reklama mazmuniga singdiradi. Aksiologik-pretsedent mexanizm baholovchi birliklar yordamida “to‘g‘ri” va “maqbul” bolalik tasavvurini meyorlashtirishga xizmat qiladi. Kognitiv-skriptiv mexanizm pretsedent birliklarni kengroq madaniy ssenariylar bilan bog‘lagan holda reklama xabarining tushunilishini yengillashtiradi.

XULOSA

1. Reklama matni semiotik jihatdan denotativ, konnotativ va mifologik darajalarning birligi tufayli lingvomadaniy tahlilning to‘laqonli obyekti hisoblanib, unda til birliklari milliy qadriyatlar va madaniy kodlar bilan uzviy bog‘liq holda voqelanadi, bolalarga oid reklamada bu bog‘liqlik yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

2. Bolalarga oid reklama matnlarida bolalik olami yetti asosiy leksik-semantik maydon – oila va qarindoshlik munosabatlari, o‘yin va qiziqarlilik, salomatlik va himoya, rivojlanish va ta’lim, emotsional holat, jismoniy xususiyatlar, predmetlar olami orqali verballashib, har bir maydonning yadro va periferiya zonalari madaniy kontekstga bog‘liq holda turlicha leksik birliklar orqali shakllanadi.

3. Fransuz reklamalarida bolalikning qiyofasi oila doirasida, mustaqil qaror qabul qiluvchi, shaxsiy tanlovga ega individ sifatida, shaxsiy fazilatlariga urg‘u berilgan holda tasvirlansa, o‘zbek reklama materialida kengaytirilgan oila, yani ota-onasidan tashqari buvijon va bobolari, amaki va boshqa qarindoshlari qurshovidagi mehribon muhitda ko‘rsatilib, bolaning kamoloti jamiyat va oilaning umumiy yutug‘i sifatida tavsiflangan.

4. Bolalarga oid reklama matnlarining sintaktik tuzilishi sintaktik qisqalik, sodda gaplarning ustunligi, imperativlik, ellipsis, partsellatsiya, parallelizm va dialogizatsiya kabi universal xususiyatlar bilan tavsiflanib, ularning til vositalari orqali ifodalanishi har bir tilda o‘ziga xos shakllar kasb etadi.

5. Reduplikatsiya bolalarga oid reklama matnlarida takrorlar, juftliklar va parallel konstruksiyalar orqali o‘yin, hazil va quvnoqlik atmosferasini yuzaga keltirib, esda qolarlilik effektini yaratish barovarida davomiylik, ko‘plik, sifat belgisining maksimal darajasi kabi ma’nolarni ifodalaydi.

6. Fransuz bolalarga oid reklamalarida murojaat ko‘proq bevosita yoki bilvosita bolaning o‘ziga (“Choisis ton style”, “Build your future”), o‘zbek reklamalarida ota-ona yoki kattalarga (“Farzandingiz sog‘lom o‘sishi uchun”, “Onalarning ishonchli tanlovi”) qaratilgan.

7. Milliy-madaniy stereotiplar xabarni tez qabul qilish va “o‘zimizniki” hissini uyg‘otish mexanizmidir: fransuz bolalar reklamasida individualistik (bolaning mustaqilligi, ekologik mas’uliyat etikasi), o‘zbek bolalar reklamasida esa kollektivistik (oilaviy birlik, ona markaziyligi) yo‘nalish bilan bog‘liq milliy-madaniy stereotiplar yetakchi o‘rin egallaydi.

8. Bayram kalendari reklama strategiyalarini bevosita belgilovchi madaniy ramka vazifasini bajarib, fransuz reklamasida Noël, Pâques, rentrée sekulyar kontekstda, o‘zbek reklamasida Navro‘z va Hayit mehr, savob, baraka va oilaviy birlik kabi milliy-diniy qadriyatlar bilan bog‘lanib keladi.

9. Fransuz materialida “bio”, “papas et les mamans”, “récoltes”, o‘zbek materialida “muborak bo‘lsin”, “chaqalog‘ingiz”, “beg‘ubor tuyg‘u”, “pokiza” kabi birliklar orqali marosimiy, diskursiv-formulaviy, aksiologik va kognitiv-skriptiv mexanizmlar asosida milliy-madaniy muhitni tasvirlovchi milliy ramzlar mahsulotga qo‘shimcha legitimlik beradi.

10. Bolalarga oid reklama matnlarida milliy ramzlar pretsedent birliklar orqali marosimiy, diskursiv-formulaviy, aksiologik hamda kognitiv-skriptiv mexanizmlar

asosida faollashib, reklama mazmunining milliy-madaniy jihatdan normallashtirilishini va adresat tomonidan ishonchli qabul qilinishini ta’minlaydi.

11. Fransuz bolalar reklamasi pretsedent birliklarni ko‘p qatlamli (global–yevropa–milliy) tizim sifatida faol ishlatsa, o‘zbek reklamasida asosan global va rus qatlamlari yetakchilik qiladi; natijada pretsedentlik fransuz diskursida ko‘proq me’yoriy-aksiologik, o‘zbek diskursida esa ishonch va munosabat semantikasini kuchaytiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

12. Turli raqamli platformalardagi bolalarga mo‘ljallangan reklama matnlarining multimodal tahlili, o‘zbek milliy animatsion qahramonlari asosida shakllanayotgan pretsedent birliklarning reklama diskursiga integratsiyasini, bolalarga oid reklamaning iste’molchi xulq-atvoriga ta’sirini, xalqaro brendlarning mahalliy bozorlarga moslashuv strategiyalarining lingvomadaniy aspektlarini o‘rganish tadqiqotning istiqboldagi yo‘nalishlarini belgilaydi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ

УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ

ХУДАЙБЕРГАНОВА МАХБУБА МЕЙЛИБАЕВНА

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТОВ ДЛЯ ДЕТЕЙ ВО ФРАНЦУЗСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

10.00.13 – Сравнительное и сопоставительное языкознание

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук под номером № B2025.1.PhD/Fil5821.

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете мировых языков.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета по адресу (www.uzswlu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Муминова Азиза Арслоновна** доктор филологических наук (DSc), профессор
Официальные компоненты:	**Axmedov Oybek Saporbayevich** доктор филологических наук, профессор
	Djafarova Dildora Ilxomovna доктор филологических наук, профессор
Ведущая организация:	**Джизакский государственный педагогический университет**

Защита диссертации состоится «____» _____ 2026 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 по присуждению учёных степеней при Узбекском государственном университете мировых языков (Адрес: 100138, город Ташкент,Учтепинский район, улица Кичик халка йули, дом 21A. Тел.: (+99871) 230-12-91; факс: (99871) 230–12–92; e–mail: uzswlu_info@mail.ru)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета мировых языков (зарегистрировано за № _____). Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, дом 21A. Тел.: (+99871) 230-12-91; факс: (+99871) 230-12-92.

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2026 года.

(Реестр протокола рассылки № ____ от «_____» _____ 2026 года).

А.А. Насиров
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

Х.В. Самигова
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

Ж.А. Якубов
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом языкознании рекламный дискурс широко изучается не только как средство коммуникации, служащее коммерческим целям, но и как социально-культурное явление, отражающее ценности, стереотипы и культурные коды определённого общества. Особое внимание уделяется лингвокультурологическим особенностям рекламных текстов, адресованных детям, и механизмам их воздействия, поскольку в условиях глобализации они выступают одним из средств формирования национально-культурной идентичности подрастающего поколения. В этой связи сопоставительное изучение рекламных текстов, адресованных детям, на материале разных языков, выявление отражённых в них национально-культурных особенностей и раскрытие механизмов воздействия на сознание молодого поколения имеют важное теоретическое и практическое значение.

В современном языкознании рекламный дискурс является одним из объектов исследования, изучаемых в рамках различных научных подходов и на материале языков разных систем. Тем не менее лингвокультурные особенности рекламных текстов, адресованных детям, во французском и узбекском языках изучены недостаточно. В частности, недостаточно исследованы языковое выражение национально-культурных стереотипов, функционально-семантические особенности прецедентных единиц, а также культурная обусловленность синтаксических и стилистических средств. Поэтому выявление языковых средств, посредством которых в рекламных текстах транслируются ценности, выражаются социальные роли и формируется культурная идентичность, остаётся одной из актуальных задач современного языкознания.

В узбекском языкознании национальный рекламный дискурс, адресованный детям, формируется как сравнительно новое направление. В нём заметное место занимают прецедентные феномены, связанные с глобальной и русской культурами. В частности, недостаточная сформированность оригинальных рекламных текстов и системы образов, выражающих национальную идентичность, – одна из проблем, требующих в этой области научного и практического внимания. Ведь «наше будущее, судьба и благополучие мира находятся в руках подрастающего поколения»[1]. Поэтому рекламный дискурс, адресованный детям, играет важную роль в укреплении статуса узбекского языка как государственного, приобщении молодого поколения к национальным ценностям и развитии компетенции межкультурного общения.

[1] Из выступления Президента Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев на 80-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН. URL: https://president.uz/oz/lists/view/8525?utm_source=chatgpt.com (дата обращения: 16.03.2026).

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени способствует реализации задач, определённых Указом Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», Указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Указом Президента Республики Узбекистан от 10 апреля 2026 года № УП-58 «О дополнительных мерах по совершенствованию системы высшего образования, науки и инноваций», Указом Президента Республики Узбекистан от 26 мая 2026 года № УП-98 «О совершенствовании системы подготовки и аттестации научных кадров нового поколения», Указом Президента Республики Узбекистан от 16 февраля 2026 года № УП-21 «О дополнительных мерах по последовательному продолжению реформ и выводу их на новый этап в рамках приоритетных направлений развития страны до 2030 года», Постановлением Президента Республики Узбекистан от 5 июня 2018 года № ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в широкомасштабных реформах, осуществляемых в стране», Постановлением Президента Республики Узбекистан от 19 мая 2021 года № ПП-5117 «О мерах по выведению деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан на качественно новый уровень», Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 августа 2017 года № 610 «О мерах по дальнейшему совершенствованию качества преподавания иностранных языков в образовательных учреждениях», а также иными нормативно-правовыми актами, регулирующими данную сферу.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий в Республике. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В современной лингвистике рекламный дискурс и его лингвокультурные аспекты широко рассматриваются как явление социокультурной коммуникации. В узбекском языкознании прагматические, когнитивные и гендерные особенности рекламных текстов изучались в работах таких исследователей, как А.А. Муминова, А.Э. Ахтямов, Ч.Б. Абдуллаева, З.Б. Кадырова, С.А. Юнусова, Ш.М. Юнусова [2] . В частности, А.А. Муминова, А.Э. Ахтямов и Ч.Б.

[2] Muminova A.A. Reklama matnida undash kategoriyasining verballashuvi (fransuz, o‘zbek va rus tillari misolida): Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: O‘zMU, 2021. – 86 b.; Axtyamov A.E. Reklama matnlarining o‘zbek, rus va nemis tillari misolidagi pragmalingvistik tahlili: Filol. fanl. bo‘yicha falsafa dokt. (PhD) diss. avtoref.– Farg‘ona: FarDU, 2022. – 60 b.; Abdullayeva Ch.B. Reklama diskursining kognitiv-pragmatik tadqiqi (ingliz va rus tillari materiallarida): Filol. fanl. bo‘yicha falsafa dokt. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – 56 b.; Kadirova Z.B. Ingliz va o‘zbek tillari reklama diskursining antropotsentrik xususiyatlari: Filol. fanl. bo‘yicha falsafa dokt. (PhD) diss. avtoref. – Buxoro, 2024. – 49 b.; Yunusova S.A. Fransuz va o‘zbek

Абдуллаева исследовали прагматические особенности рекламных текстов, уделяя особое внимание механизмам воздействия рекламы на потребителя, а также её целенаправленной коммуникативной ориентированности. З.Б. Кадырова рассмотрела антропоцентрические особенности рекламного дискурса английского и узбекского языков; С.А. Юнусова – гендерные особенности рекламных текстов на французском и узбекском языках; Ш.М. Юнусова – синтаксические особенности рекламных текстов и их прагматическую специфику в узбекском языке.

Лингвистические, прагматические и лингвокультурные особенности рекламного дискурса и рекламных текстов получили широкое освещение в трудах И.А. Гусейновой, Е.С. Кара-Мурзы, В.В. Зирки, Н.Н. Кохтева, Е.В. Дзякович, Л.П. Амири, Х. Кафтанджиева. В этих исследованиях рекламный текст трактуется как средство коммуникативного воздействия, механизм передачи культурных кодов и дискурсивное явление. А.М. Туликова, А.М. Казанцева, В.А. Каменева [3] и другие авторы исследовали особенности рекламных текстов, предназначенных для детей.

В исследованиях зарубежных учёных, таких как Р.Барт, Ж.-М. Флош, М.Боном, П.Шародо [4], исследуются семиотическая структура рекламного текста, его прагматические функции, взаимодействие с культурой, а также дискурсивные характеристики. Указанные исследователи рассматривают рекламный дискурс как активное пространство культуры и раскрывают механизмы его коммуникативного воздействия.

В исследованиях рекламы, ориентированной на детскую аудиторию, Ж.Пиаже, Э.Батон-Эрве, Э.Гишар [5] и другие авторы уделяли внимание когнитивным особенностям ребёнка, возрастным аспектам восприятия рекламы и формированию потребительской культуры детей.

Связь темы диссертационного исследования с планами научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, где выполнена диссертация. Диссертация выполнена в рамках перспективного

---

tillaridagi reklama matnlarining gender xususiyatlari. Filol. fanl. bo‘yicha falsafa dokt. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: O‘zDJTU, 2024. – 54 b.;Yunusova Sh.M. O‘zbek tilidagi reklama matnlarining sintaktik xususiyatlari va ularning pragmatik xoslanishi. Filol. fanl. bo‘yicha falsafa dokt. (PhD) diss. avtoref. – Guliston, 2023. – 48 b.

